



SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF IBN KHALDUN'S CONCEPT OF "SOCIAL SOLIDARITY" IN INTERPERSONAL RELATIONS

Aziza Toshmuradovna Qayumova

Associate Professor, PhD in Philosophy

Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: politics, society, asabiyya, potential, justice, cooperation, regulation, theory, state.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: This article examines the socio-philosophical essence of the theory of social solidarity developed by Ibn Khaldun based on the concept of "asabiyya". The author interprets "asabiyya" as a form of social cohesion grounded in the interrelation between property, power, and unity. Ibn Khaldun views "asabiyya" as a key factor in socio-political development and philosophically substantiates its role in state governance. The article also provides a detailed analysis of the stages of the development of asabiyya and the social contradictions arising in the process of state formation and property ownership.

IBN XALDUNNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI "IJTIMOIY BIRDAMLIK" KONSEPSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Aziza Toshmuradovna Qayumova

Dotsenti, s.f.f.d. (PhD)

Buxoro davlat universiteti

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: siyosat, jamiyat, "asabiyya", potentsial, adolat, hamkorlik, regulyatsiya, nazariya, davlat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ibn Xaldunning "asabiyya" konsepsiyasi asosida shakllangan ijtimoiy birdamlik nazariyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil etilgan. Muallif "asabiyya"ni jamiyatdagi birdamlik, mulk va hokimiyat oʻrtasidagi aloqadorlik asosida izohlaydi. Ibn Xaldun "asabiyya"ni ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin etib, uning davlat boshqaruvidagi oʻrnini falsafiy asosda asoslaydi. Shuningdek, maqolada asabiyya

bosqichlari, mulkka egalik va davlatning shakllanish jarayonidagi ijtimoiy ziddiyatlar chuqur yoritilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ «СОЦИАЛЬНОЙ СОЛИДАРНОСТИ» В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ ИБН ХАЛДУНА

Азиза Тошмурадовна Каюмова

Доцент, канд. соц. наук (PhD)

Бухарского государственного университета

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика, общество, асабийя, потенциал, справедливость, сотрудничество, регулирование, теория, государство.

Аннотация: В статье рассматривается социально-философская сущность теории социальной солидарности, сформулированной Ибн Халдуном на основе концепции «асабийя». Автор интерпретирует «асабийю» как форму общественной сплочённости, основанную на взаимосвязи между собственностью, властью и солидарностью. Ибн Халдун рассматривает «асабийю» как ключевой фактор социально-политического развития, философски обосновывая её значимость в системе государственного управления. В статье также подробно анализируются этапы развития асабийи, социальные противоречия, возникающие в процессе формирования государственной власти и распределения собственности.

Kirish

Mutafakkir Ibn Xaldun o'zining ijtimoiy qarashlarida mulkka bo'lgan munosabatning o'rniga va roliga katta e'tibor qaratgan. Uning aksariyat ta'limoti davlat boshqaruvida, odilona siyosat yuritish orqali jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirish, iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan xususiy mulkni har tomonlama tahlil etishga yo'naltirilgan. Ibn Xaldun fikricha, jamiyat hayotining har bir bosqichida, uning ijtimoiy taraqqiyoti mazmun-mohiyatini ifodalovchi va uni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi o'ziga xos tarixiy-siyosiy jarayon amal qiladi.

Asosiy qism

Mazkur maqolani yozishda tarixiy-falsafiy va sotsiologik tahlil metodlari asos qilib olindi. Ibn Xaldunning "asabiyya" konsepsiyasi doirasida shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy birdamlik va davlatning shakllanishiga oid nazariy qarashlari tahlil qilindi. Asosiy metod sifatida taqqoslash, mantiqiy-tahliliy, konseptual yondashuv, shuningdek, kategoriyalarni tahlil qilish metodi qo'llanildi. Metodologik asos sifatida sivilizatsion nazariya, strukturalizm va ijtimoiy aloqalar

evolyutsiyasi nazariyalari bilan uyg'unlikda Ibn Xaldun ta'limotlari kontekstida yondashildi. Shu bilan birga, zamonaviy sotsiolog olimlarning "asabiyya"ga bergan talqinlari kritik yondashuv asosida guruhlashtirib o'rganildi.

Bu jarayonni Ibn Xaldun "asabiyya" tushunchasi bilan ifoda etadi. Bu tushunchani hozirgi zamon ilm-fan atamaları tarkibida tadqiq etgan olimlar "asabiyya" tushunchasini turlicha talqin etishgan. Ularning qarashlarini 3 ta guruhga bo'lib tahlil qilganimizda, quyidagi tasnif yuzaga keldi:

1) "Asabiyya" - de Slen, Butul fikricha sotsial mohiyatga ega tushuncha bo'lib, "ijtimoiy birdamlik" ma'nosini anglatadi. Xuddi shu fikrni I.Inon, F.Rozentallar ham ma'qullashgan. Ularning fikricha, ham "asabiyya" katta hayotiy, ijtimoiy-siyosiy kuch hisoblanib, unda insonlar avval oilaga keyin jamoalarga, so'ngra katta jamiyatda birlashib, davlatni barpo etishga xizmat qilganlar.

2) A.Kremer, R.Monyelar esa "asabiyya"ni "millatchilik" ma'nosida talqin etib, kishilarning maqsadli siyosiy faoliyati deb tahlil qilishgan.

3) F.Gabrieli esa "asabiyya"ni qabilaviy holatda uyushuvga xos bo'lgan odatlar majmui tarzida talqin etib, uni an'anaviy, ma'naviy kuch sifatida asoslashga intiladi [1].

Yuqoridagi qarashlardan farqli o'laroq, Ibn Xaldun "asabiyya" tushunchasini jamiyat a'zolarini muayyan tartibotlar doirasida adolatli birlashtirishdan iborat ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida tahlil qilgan. Ayniqsa, sodda jamiyatlarda birlashtiruvchi munosabatlarning tartiblashuvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu ijtimoiy zaruratni Ibn Xaldun asabiyya sifatida ta'riflaydi. "Asabiyya" tushunchasi guruh yoki qabila, urug' doirasida birlashtirish hamda qon-qarindoshlik asosidagi odamlararo aloqani ham anglatadi [2].

"Asabiyya" faqatgina bir qabila yoki urug'ni birlashtiruvchi qon-qarindoshlik aloqasigina bo'lmasdan, aksincha, bu umuman, keng-qamrovli uyushuvni anglatadi. "Asabiyya" tushunchasining asosini moddiy ne'matlarni, ya'ni barcha boyliklar emas, balki insonlarning fiziologik talab va ehtiyojlarini qondirish va uni adolatli taqsimlanish jarayoni tashkil etadi". Ijtimoiy adolat, o'zaro birdamlik jarayonlarini boshqarishni hududdagi obro'-e'tiborli insonlar, ya'ni oqsoqollar amalga oshirishadi, bunda davlat boshqaruvi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy hurmatga, ya'ni madaniy potensialiga tayanadi. Ijtimoiy guruhlarining tashqi xavflardan himoyasi asabiyya asosida uyushma yoshlari va ularning jismoniy jihatdan kuchli a'zolariga yuklatilgan.

Ibn Xaldun o'zi yaratgan "Asabiyya konsepsiyasi" orqali jamiyatdagi birlashish jarayonining sosiologik xaritasini yaratgan. Mazkur xaritaga ko'ra, "Asabiyya konsepsiyasi"ga binoan birlashish jarayoni 4 ta bosqichdan iboratdir.

1-bosqich, "Halifun" deb atalib, bir necha urug' va qabilalarning teng huquq asosidagi birlashishini anglatadi. 2-bosqich, "Haqqaqa", ya'ni yirik qabilalarning kichik urug'lar vakillarini

qabul qilib birlashtirishni nazarda tutadi. 3-bosqich, “Raqqqa”, ya’ni ozod kishilarni qullikka olish va homiylik tartibotlarini barcha urug’larga tatbiq qilish vazifalarini amalga oshirishdan iborat 4-bosqich, “vilaya”, ya’ni barcha urug’larning va qabilalarning ijtimoiy adolat, hamkorlik, mehr-oqibat ko’rsatish borasidagi faoliyatining muayyan tartibotlar asosida barqaror yo’lga qo’yishni nazarda tutadi [2].

Homiylikdan foydalanuvchi qullar va ittifoqdoshlar nazariy va rasmiy jihatdan ijtimoiy guruhning teng qismi hisoblanishadi. Aslida esa birlamchi davrda asosiy guruh a’zolarining aksariyati o’zaro tengsizlik holatida yashashadi. Chunonchi, qabilaga qo’shilganlar qabilaning boshlig’i bo’la olishmaydi. Qoida bo’yicha hukm o’tkazish, ya’ni boshqaruv nasldan-naslga ichki nasab-aslzodalar oilasidagi vorisiylik an’analariga rioya etish orqali o’tadi [3].

“Muqaddima” asarida Ibn Xaldun “asabiyya” e’tiqodiy yondashuvi asosida boshqariluvchi har qanday jamoalarda regulyasiyaga, ya’ni yo’naltirishga bo’lgan ijtimoiy zarurat mavjud deb hisoblagan. Shu tariqa bir tomondan boshqarish ehtiyoji va boshqarilishga bo’lgan ijtimoiy zarurat o’rtasida ijtimoiy bog’liqlikka taqozoviy talab tarzida namoyon bo’ladi. Ma’lumki, avtoritar boshqarish tengsizlikni joriy etishni ifoda etib, rahbarlikni amalga oshirish jarayoni muayyan tarzda ta’sir, tazyiq, zo’rlilikni talab etgan. Biroq, noilojlikdan boshqalarga bo’ysunish va ochiq-oydin tengsizlik jamiyatda tinchlikning so’nggi ilinji tarzida asrash ijtimoiy guruh birligini amalda ta’minlashga intilish ko’proq illyuzor xususiyatga ega. Buni chuqur bilgan Ibn Xaldun odamlararo totuvlik va boshqaruvdagi barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblangan mulk omiliga ustuvor ahamiyat qaratgan [4].

Ibn Xaldun mulk tushunchasini 2 xil ma’noda: birinchisi mulk, - ya’ni boylik orqali hokimiyatga ta’sir o’tkazish va ikkinchisi, hokimiyat orqali mulkni boshqarish ma’nolarida ishlatgan. “Asabiyya konsepsiyasi” shu ma’nolarning o’zaro mantiqiy bog’liqligi, ya’ni mulk va hokimiyatning o’zaro aloqadorligiga asoslangan. Demak, “Asabiyya nazariyasi”ga binoan mulkning vujudga kelishi va mazkur hodisaga guruh a’zolarining munosabatlari atroflicha talqin etilgan. Ibn Xaldun doimo “mutammadun”, ya’ni sivilizatsiya bilan hokimiyatga egalikning o’zaro qayd qilgan va ular aslida bir-biridan ajralgan holatda mavjud bo’la olmaydi deb hisoblagan. Mulhokimiyatni vujudga keltirishi oqibatida dunyo ne’matlariga egalik qilish imkoniyatini ham yuzaga keltirgan. Shu nuqtai nazardan Ibn Xaldun davri va shu davrga xos sosial tuzum tarixi moddiy vositalar, ya’ni ne’matlarni mol-mulkka ega bo’lganlar hamda undan mahrum bo’lgan guruhlariga qayta taqsimlash tizimi sifatida namoyon bo’lgan.

Qayta taqsimlash jarayonlarini odamlar ijtimoiylashgan dastlabki sodda jamoadan “mutammadun” bosqichiga o’tishdayoq kuzatish mumkin. Ibn Xaldun ushbu jarayonni badaviy vahshiylar “mutammadun” odamlarining mol-mulkini bosib olishi misolida izohlab, sodda jamoalar moddiy va ma’naviy boyliklarni qayta yaratishni maqsad qilib qo’yishmaydi, deb qayd

etgan [5]. Biroq tamaddun o'z mavjudligini davom ettiradi, doimiy ravishda ortiqcha moddiy va ma'naviy mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish orqali taraqqiyot uzviyligini ta'minlaydi.

Binobarin, mol-mulk moddiy ne'matlarning majmuasi sifatida qandaydir bir turg'un, ya'ni statik holatda va doimo yangi "asabiyya"lar orasida qayta taqsimlanishi bilan kamayib bormaydi, balki doimiy ravishda ko'payib, o'sib borish tendensiyasi orqali namoyon bo'ladi. Katta va kichik shaharlar aholisi o'z tasarrufida ko'plab ko'chmas mulk, yerlarni jamlagan bo'lsalar, bularning hammasini birdan, bir avlod hayoti mobaynida yig'ishmaydi. Chunki odamlar, hatto, hashamatli va farovon turmush kechirgan taqdirilarida ham o'zlari uchun yetarli mablag' yig'dim, deb hisoblashmaydi. Shu bois ular o'z qo'llariga asta-sekin ajdodlar va qarindosh-urug'lardan meros qolgan yerlarni egallashga yoki qo'shimcha yer sotib olishga intilishadi. Negaki, jamiyat va davlat tartibotlari susayib, sulolaning umri bitgan va boshqa sulolaning davri hali to'la shakllanmagan davrda, shahar xaroba bo'lish arafasida turgan bir paytda ko'chmas mulkka talabgor kam bo'ladi, hamma moddiyot inqirozga yuz tutganligi oqibatida ko'chmas mulkning narxi tushgani bois uni arziyas pulga sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Shahar esa yangi sulola ravnaq topishi bilan uyg'un tarzda yana gullab-yashnay boshlaydi. Shunday paytlarda kishilarda ko'chmas mulk va yer sotib olish kabi tabiiy istak tug'iladi. Bunday holat ta'sirida yer narxi ko'tarilib, endi avvalgidan ham qimmatroq baholana boshlanadi.

Ko'chmas mulk va yer sotib olish shaharning eng boy kishisi maqomini ham beradi. Ibn Xaldun o'z davriga xos bo'lgan mazkur ijtimoiy-iqtisodiy holatni tahlil etib, shunday xulosaga kelgan. Ko'chmas mulk va yerdan keladigan daromad mulk egalari ehtiyojlarini qondirish uchun yetmaydi. Zero, hashamatli turmush taqozo etadigan xarajatlarni qoplay ham olmaydi va mulkdan olinuvchi daromadga mos bo'lmaydi. Shu bois mulkdorlar orasida o'zaro ijtimoiy munosabatlar taranglasha boshlaydi. Natijada jamiyat yangi ijtimoiy zo'riqish, ziddiyat va konfliktlar fazasiga kiradi [6].

Davlat tushunchasi Ibn Xaldun ijtimoiy nazariyasida ko'p jihatdan mulk ma'nosi bilan o'zaro uyg'un tarzda izohlagan. Davlat tushunchasi hokimiyatga egalik, mulk ma'nosini anglagan. Davlat bir guruh odamlarning boshqa odamlarga nisbatan rahbarligidan farq qilib, dunyo ne'matlariga sulolaviy egalik tizimini vujudga keltirgan. Xususiy mulk shu boisdan ham shubhasiz, davomli boshqaruvga da'voligi bilan bog'liq. Davlat o'z kelib chiqishi jihatidan "asabiyya" bilan bog'liq va uning bir shakldan ikkinchisiga o'tishidir.

"Asabiyya" tushunchasining yana bir jihati bu so'z qon-qarindoshlik asosida bir-biriga bog'liq bo'lgan etnik guruh ma'nosini ham anglatgan. Shubhasiz davlat, odatda muayyan urug', qabila tomonidan mol-mulkni egallab olish natijasida yuzaga keladi. O'zining boshlang'ich davrida davlat etnik begona guruhning boshqarishi hisoblanadi, ya'ni u ksenokratiyadir.

“Asabiyya” nafaqat mulkka, balki hududga ham egalik qilib, undagi boshqa etnik guruhlariga nisbatan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ta’sir va tazyiq o’tkazadi” [7].

Ibn Xaldun qarashicha, davlat bu vorisiylik tamoyillariga tayanuvchi sulolaviy hokimiyat. O’zining tabiati va mohiyatiga ko’ra, aristokratik va sulolaviylik an’anasiga egadir. Davlat tuzilishining boshlang’ich davridanoq, hukmronlikka ega bo’lgan urug’, qavm va tabaqa fuqarolardan ajralgan holda, hokimiyatni boshqara boshlaydi, Biroq, uning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratgan kuch asta-sekinlik bilan “asabiyya”dan ajraladi. Dastlabki bosqichda mamlakat hududi va undagi moddiy ne’matlar, qadriyatlarni “asabiyya” boshqaradi.

Ibn Xaldunning fikricha, bu davlatning sodda va oddiy ko’rinishi. Unda o’tmishda “asabiyya”ga xos bo’lgan oddiy demokratik xususiyat ustunlik qilgan. Ammo keyinchalik, xususiy mulkning paydo bo’lishi bilan davlat boshlig’i va “asabiyya” o’rtasida sekin-asta qarama-qarshilik vujudga kelgan. Kechagi safdoshlarning mol-mulkli holatga o’tishi bilan bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanishi. Biroq, davlat o’z hukmronligini zo’rlilik bilan amalga oshirishi tufayli kuchli bo’lib, u mazkur omilga tayangan holda, hatto o’z “asabiyya” a’zolarini yo’qotishga ham tayyor bo’ladi [8].

Xulosa

Xavfsizlik va mulk davlatni mustahkamlashga intilish, natijasida shunday holat paydo bo’ladiki, malik, ya’ni boshqaruvchi hokim qon-qarindoshlik, urug’chilikka emas, balki alohida imtiyozlarga tayangan yangi “asabiyya”ni yaratadi. Bu yangi, ya’ni sun’iy “asabiyya” eski “asabiyya”ning barcha imtiyozlaridan foydalana boshlaydi. Oqibatda, davlat o’zga qabila va hatto, o’z xalqiga nisbatan ham begonaga aylanadi, u o’zining ijtimoiy, genetik va sosial asosi, tayanchidan ajralib, mustaqil kuch sifatida davlat apparatiga aylanadi. Bunda uning asosiy vazifasi o’z mavjudligini qayta va qayta yodga solib turishdan iborat bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Бартольд В.В. Ислам и культура мусульманства, –Москва: МГТУ, 1992, –С. 54;
2. Якубовский А.Ю. Проблема социальной истории народов Востока в трудах В.В. Бартольда, –Владимир: ВЛГУ, 1947, № 12. –С. 18-20;
3. Крачковский И.Ю. Арабская литература в XX в., –Санкт-Петербург: “ЛГУ”, 1946, –С. 28;
4. Беляев Е. Историко-социологическая теория Ибн Хальдуна, –Москва: “Историк-марксист”, 1940, № 4-5, –С. 79-80;
5. Иванов Н. А. “Китаб -аль –Ибар” Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV веке // Арабский сборник. –Москва:, 1959. -С 3-45;
6. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна “Мукаддима”, –Москва: Наука, 1965. –С. 223;

7. Игнатенко А.А. Ибн Хальдун. –Москва: Мысль, 1980, –С. 20-65;
8. Бородин С. Молниеносный баязет, –Москва: “Известия”, 1973, –С. 20-40. Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии, – М. Книжный дом “Университет”, 1997, – С. 224.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.